

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.No'monzoda	
Geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy tahlili	331
F.A.Hamdamova	
Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash mazmuni	334
M.A.Nishonov	
Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organi xodimlari kasb etikasini rivojlantirish asoosida vatanparvarlikni tarbiyalash tizimi	338
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarda hisobdorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy va ta'limiy asoslari	343
S.S.Asatov	
Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qurish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning zamonaviy ahamiyati	346
D.Q.Majidova	
Jadidchilik harakatining kelib chiqish tarixi va ta'limoti.....	351
S.R.Qutlimuratov	
Xorazm jadidlarining ilm-fanga bo'lgan munosabati	355
N.U.Jamalova	
Globallashuv jarayonida ta'limning o'zgarishi va gumanitar fanlarning o'rni.....	360
M.A.Matmusayeva	
O'yinlarning lisoniy talqinida milliy-madaniy tushuncha ifodasi	365
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	368
F.A.Ibroximov	
Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati	374
R.B.Tursunov	
O'quv jarayonlariga axborot texnologiyalarini joriy etish	379
D.B.Toshaliyev	
Oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-madaniy merosga aksiologik munosabatini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	383
U.Xolova	
Falsafafiy tafakkur taraqqiyot bosqichida ma'rifat davrining boshlanishi. Sharq falsafasida ma'rifat va ma'rifatparvarlik harakatlari («Avesto» misolida)	386
S.E.Baymuradova	
Geografiya fanini masofaviy o'qitishda mobil ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari.....	390
B.M.Qandov	
Turor Risqulov siyosiy faoliyatining boshlanishi va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o'rni.....	394
A.M.To'rayev	
Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bo'lg'usi kadrlarni kasbiy rivojlantirishidagi muhim omil sifatida	400
A.A.Meliqo'ziyev	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	404
J.Sh.Mamayusupov	
Falsafa fanlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari.....	408
Y.S.Sidiqova	
Pedagogikada neyrotexnologiyalar innovatsion vosita sifatida	413
B.X.Karimov	
Ilk uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy–falsafiy merosi va uning jamiyat jivojidagi o'rni	418
Y.M.Namozova	
Ta'lim va insonparvarlikka asoslangan "Taraqqiyot strategiyasi" jamiyat barqaror taraqqiyotining manbai sifatida.....	423



УО'К: 101.1

**GEOSIYOSIY KURASHLAR SHAROITIDA IJTIMOIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH
MUAMMOLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ**

**SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF ENSURING SOCIAL SECURITY IN THE
CONTEXT OF GEOPOLITICAL CONFLICTS**

No'monzoda Akmaliddin Madaminjon o'g'li

Farg'ona viloyati IIB xodimi

Annotatsiya

Maqolada geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarini ijtimoiy falsafa doirasida tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy tahlili, geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, geosiyosiy kurashlar sharoitida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы исследования проблем обеспечения социальной безопасности в условиях geopolитических конфликтов. Приводится социо-философский анализ обеспечения социальной безопасности в таких условиях и исследуются будущие задачи, связанные с этой проблемой. Также анализируются социально-философские аспекты проблем обеспечения социальной безопасности в контексте geopolитических конфликтов.

Abstract

This article examines the theoretical and methodological foundations for researching the issues of ensuring social security in the context of geopolitical conflicts. It provides a socio-philosophical analysis of ensuring social security under such conditions and explores the future tasks related to this issue. Additionally, the social-philosophical aspects of the problems of ensuring social security in the context of geopolitical conflicts are analyzed.

Kalit so'zlar: geosiyosat, geosiyosiy kurashlar, qonuniyatlar, qiyosiy tahlil, strategik ahamiyat, falsafiy xususiyat, shaxsiy xavfsizlik va daxlsizlik, nazariy-metodologik asos, ijtimoiy xavfsizlik.

Ключевые слова: геополитика, geopolитические конфликты, законы, сравнительный анализ, стратегическое значение, философские характеристики, личная безопасность и недоступность, теоретические и методологические основы, социальная безопасность.

Key words: geopolitics, geopolitical conflicts, laws, comparative analysis, strategic significance, philosophical characteristics, personal security and inviolability, theoretical and methodological foundations, social security.

KIRISH

Shaxs, davlat va jamiyatning himoyalanganligi darajasini yuksaltirish masalasi barcha zamonlarda ham dolzarb sanalgan. Biroq XXI asr arafasiga kelib, shaxs ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, davlat va jamiyat yaxlitligiga raxna soladigan omil va vositalar, metodologiya va texnologiyalar shu qadar ko'payib ketdiki, ijtimoiy xavfsizlik bilan bog'liq muammolarni yangi realiyalar kontekstida tahlil qilish, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy konsepsiysi asoslarini ishlab chiqish zaruriyati tug'ilmoqda. Ushbu strategik vazifani bajarish uchun, avvalo, "ijtimoiy xavfsizlik" tushunchasini ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilmoq maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaxs, davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash muammolari barcha zamonlarda barcha mamlakatlarda turli rakurslarda, turli munosabatlar bilan keng tadqiq qilib kelingan masalalar turkumiga kiradi. Shu sababdan mutafakkirlarning ko'plab asarlarida mavzuga doir ahamiyatlari fikrlar bayon etiladi. Masalan, Platon xavfsizlikni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini

uyg'unlashtirish orqali ta'minlash mumkin, deb ta'kidlaydi. Muammo yuzasidan qimmatli fikrlarni Konfutsiy, Aristotel, N.Makiavelli, T.Gobbs, J.J.Russo, N.Berdyyayev va boshqalarning asarlarida ham uchratish mumkin. O.Voznesenskaya, V.Karpov, D.Pavlov, N.Kryuchek, M.Kuznetsov, Y.Lukasheva, F.Lyushev, S.Maxov, D.Samoylovlarning asarlarida shaxs xavfsizligining asosiy xususiyatlari, uni ta'minlash uslublari va vositalari xususida fikr yuritiladi. V.Averchenkov, V.Yerixin, O.Golembiovskayaning asarlarida davlat xavfsizligini ta'minlash tizimining rivojlanishi tarixi o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kishilik jamiyati yaralganidan buyon inson va sotsium turli xavf-xatarlardan xoli bo'Imagan. Shu boisdan uni xavfdan xoli qilish, xavfsizligini ta'minlash masalasi barcha zamonlarda ham o'z davri mutafakkirlari diqqatini tortib kelgan. Umuman olganda, xavfsizlik deganda xavf-xatar va tahdidlarning mutlaqo yo'qligi nazarda tutiladi. Biroq shaxs, davlat va jamiyat uchun bunday vaziyatning norealligini inobatga olgan holda mavzu xususida ilk mulohaza yuritgan mutafakkirlar xavfsizlikni xavf-xatar va tahdidlardan himoyalanganlik holati bilan bog'laydilar. Boshqacha aytganda, xavfsizlik – obyektga xavf va tahdid soluvchi omillarni bartaraf qilish imkoniyatining mavjudligi, bu tahdidlarga qarshi turuvchi mexanizmning mavjudligi demakdir. Bunda obyekt vazifasini shaxs, davlat, jamiyat o'taydi. Aynan shu uchlikni ilmiy manbalarda ijtimoiy xavfsizlik obyektlari triadasi deb yuritiladi.

O'tgan asrning oxirlarida avj olgan geosiyosiy raqobat "ijtimoiy xavfsizlik" tushunchasi mazmuni va tarkibiy elemetlarini yanada mufassalroq tahlil etishni taqazo qilmoqda. Ma'lumki, "geosiyosat" tushunchasi XIX asrdayoq ilmiy muomalaga kiritilgan. Uni ilk bor Shvetsiyalik olim R.Chellen qo'llagan. Bu davrda Yevropaning yetakchi mamlakatlarida qudratli davlat barpo etish masalasi tendensiyaviy tus olgan edi. R.Chellen shu maqsadda amalga oshirilgan siyosiy hattiharakatlarni geosiyosat sifatida talqin qilgan edi. Germaniyalik olim F.Ratsel esa masalaning boshqa jihatiga e'tiborni qaratdi. Har qanday davlat o'z siyosatini mamlakatning geografik holatidan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Olim ana shu aloqadorlikni geosiyosat deb tushunadi. Keyinchalik esa qator tadqiqotchilar davlat siyosati xarakteriga nafaqat muayyan mamlakatning geografik holati, balki boshqa mintaqalar va mamlakatlardagi vaziyat ham ta'sir ko'rsatishini e'tirof eta boshladilar.

Kundalik hayotda odatda ijtimoiy xavfsizlik, deganda davlat xavfsizligining ta'minlanganligi darajasi tushuniladi. Ayrim ilmiy manbalarda ham mazkur ikki tushuncha sinonim sifatida qo'llaniladi. Masalan, K.Kokunov o'z dissertasiyasida "davlat xavfsizligi" va "ijtimoiy xavfsizlik" tushunchalarini aynan bir xil tushunchalar sifatida talqin qiladi¹⁶. Bunday metodologik yondashuv yuqorida keltirilgan ijtimoiy xavfsizlik triadasini yaxlit tizim sifatida tasavvur qilishga xalal beradi. Natijada ijtimoiy xavfsizlikning tarkibiy komponentlarini aniq ifodalash, mavjud xavf va tahdidlarni triada obyektlariga mutanosib ravishda tasniflash qiyin kechadi.

Biz keltirgan ta'rif ustida yuzaki mulohaza yuritishning o'ziyoq ijtimoiy xavfsizlik murakkab tizimdan iborat ekanligini namoyon etadi. Uning tarkibi quyidagi tizim osti tarkiblarini o'z ichiga oladi:

- a) shaxs xavfsizligi;
- b) davlat xavfsizligi;
- v) jamiyatxavfsizligi.

Ushbu tizim osti tarkiblarining har biri ko'plab elemetlardan tarkib topadi. Binobarin, ijtimoiy xavfsizlik tizimining tarkibiy-funksional tahlili, birinchidan, biz o'rganayotgan obyekt haqida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, ikkinchidan, ijtimoiy xavfsizlikka tahdid solayotgan omillarni tasniflash, uchinchidan, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi detallarini aniqlash imkonini beradi.

1. Shaxs xavfsizligi – ijtimoiy xavfsizlik tarkibidan joy olgan birinchi tizim osti tarkibidir. U shaxsnинг hayoti va faoliyati, jismi va sog'lig'i, manfaat va ehtiyojlari, ma'naviy qiyofasiga tahdid soladigan omillardan himoyalanganlik holatini anglatadi.

Ta'kidlash joizki, "shaxs xavfsizligi" tushunchasi ilmiy manbalarda XX asr oxirlariga kelib paydo bo'ldi. Buning qator sabablari bor, albatta. Gap shundaki, ta'kidlab o'tganimizdek, XX asrga qadar "xavfsizlik" tushunchasi davlat bilan bog'lanardi, xolos. Yigirmanchi asrga kelibgina xavfsizlik nafaqat davlatni, balki jamiyatni va shaxsni ham turli xavf-xatarlardan himoyalashni taqozo qilishi anglab yetildi. Shu davrdan boshlab shaxs xavfsizligining mazmun-mohiyati, asosiy jihatlari

ILMIY AXBOROT

tahliliga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar nashr etildi. Bu o'rinda shaxs xavfsizligining mazmuni va uni ta'minlash muammolariga bag'ishlangan O.Voznesenskaya, V.Karpov, D.Pavlov, N.Kryuchek, M.Kuznetsov, Y.Lukasheva, F.Lyushev, S.Maxov, D.Samoylov va boshqalarning ahamiyatli ilmiy ishlarini tilga olib o'tish maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda ham keyingi o'n yil ichida shaxs xavfsizligining ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy, axborot-psixologik aspektlariga bag'ishlangan ko'plab e'tiborga loyiq ilmiy ishlar nashr etildi.

Jamiyatda shaxs xavfsizligini ta'minlash uchun, eng avvalo, mazkur jarayonning obyekti va subyektini mufassal tasavvur etmoq lozim. Zotan, shaxs xavfsizligining obyektni, tabiiyki, shaxs, uning subyektini esa davlat, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari, mehnat jamoalari, ijtimoiy sinflar, guruhlar va shu kabilar tashkil qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, insonning o'zi ham o'z xavfsizligini ta'minlash subyekti hisoblanadi. O'z hayoti va faoliyati, jismi va sog'lig'i, ma'naviy qiyofasi uchun shaxsiy mas'uliyat qaror topmas ekan, shaxs xavfsizligi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Shaxsnинг xavfsizligi uning jismoniy va ma'naviy xavfsizligining ta'minlangani holatidan tarkib topadi. Jismoniy xavfsizlik shaxs hayoti va faoliyati, jismi va sog'lig'ining himoyalanganligi, unda zaruriy jismoniy tayyorganlikning qaror toptirilgani, favqulodda holatlarga tayyorlik darajasi bilan bog'liq. Jamiyatda shaxs hayotini qadrlash, sog'lig'ini asrash, jismoniy imkoniyatlarini oshirib borish, hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlash mexanizmining mavjudligi uning ijtimoiylashuvি jarayonini jadallashtiradi, ijtimoiy faolligini yuksaltiradi.

Ma'naviy xavfsizlik esa shaxs ma'naviy qiyofasining turli tahdidlardan himoyalanganligi holatini namoyon etadi. Har qanday jamiyatda shaxs ongi va dunyoqarashi jamiyat ehtiyoj va manfaatlariga mutanosib ravishda shakkantirilmog'i, turli tahdidlardan himoyalalanmog'i shart. Chunki shaxs ma'naviy xavfsizligi inson mavjudligining asosiy manbalaridan biridir. Shaxs ma'naviy qiyofasiga tahdid nafaqat uning ma'naviy tanazzuliga, balki asta-sekinlik bilan jamiyat va davlatning haminqiroziga sabab bo'lishi mumkin. Insoniyat tarixida bu o'zaro aloqadorlik ko'plab bor o'z isbotini topgan. Shu bois shaxs ma'naviy xavfsizligi masalalari mutafakkirlarning jiddiy e'tiboriga sabab bo'lgan.

XULOSA

Jamiyat xavfsizligi keng ma'noda kishilarning ijtimoiy va moddiy muhofazasini ta'minlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, xuquqiy chora-tadbirlar majmuini anglatadi. Tor ma'noda esa jamiyat xavfsizligi deganda jamiyat a'zolarining yoshi, salomatligi, ijtimoiy ahvoli, tinch va xotirjam turmushi uchun yaratilgan shart-sharoitlar, yordamga muhtoj kabilar nazarda tutiladi. Uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolarining munosib turmush darajasini ta'minlash, aholi farovonligini muttasil oshirib borish, turli aholi qatlamlarining mehnat, ta'llim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalardagi imkoniyatlardan teng foydalanishini ta'minlash bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Атаманов Г. А. Информационная безопасность: сущность и содержание // Бизнес и безопасность в России. – 2007. – № 47. – С. 106
- Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000. -С. 13
- Дзлиев М.И., Романович А.Л., Урсул А.Д. Проблемы безопасности: теоретико-методологические аспекты. – Москва: МГУК, 2001. – С.9.
- Заплатинський В. М. Терминологія науки о безпекості. Zbornik prispevkov z medzinarodnej edeckej konferencie «Bezhecnostna veda a bezpecnostne vzdelanie». – Liptovsky Mikulas: AOS v Liptovskom Mikulasi, 2006. – С.78-80.
- Каримов Ф. Давлат ва жамият хавфсизлиги ва унга таъсир этувчи асосий омиллар // Шарқ машъали. – Тошкент, 2017
- Мамадалиев Ш., Тожибоев М. Ўзбекистон Республикасининг хавфсизлигини таъминлашнинг ғоявий асослари // ЎзР ИИБ Академияси ахборотномаси, 2011, - №2.
- Раймов Ш.У. Ахборот хавфсизлигини таъминлаш – миллий хавфсизлик стратегиясининг энг муҳим йўналиши. / Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси жорий архиви, 2006
- Стрельцов А. А. Содержание понятия «обеспечение информационной безопасности» // Информационное общество. – 2001. – № 4. – С. 12.